

RIVOJLANGAN DAVLATLAR MISOLIDA TASHQI SAVDONI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI

Quvatova Zaxro Orifjonovna

Bojxona instituti o‘qituvchisi

Abdullayeva Gulsanam Shavkatjon qizi

Bojxona instituti kursanti

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivojlangan davlatlarda tashqi savdoning davlat tomonidan tartibga solinishi masalasi tahlil qilinadi. Maqolada tashqi savdoni boshqarish va tartibga solishning asosiy siyosiy, iqtisodiy va huquqiy vositalari ko‘rib chiqiladi. Rivojlangan davlatlar, o‘z iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash, mahalliy sanoatni himoya qilish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlash maqsadida eksportni rag‘batlantirish, importni cheklash, bojxona siyosatlarini qo‘llash va savdo kelishuvlariga kirish kabi turli usullarni amalga oshiradilar. Maqolada, shuningdek, bojxona tariflari, kvotalar, subsidiyalar va boshqa savdo cheklovlari orqali tashqi savdo oqimlarini boshqarish metodlari misollar bilan yoritiladi. Xususan, AQSh, Yaponiyaning va Yevropa Ittifoqining tashqi savdo siyosatlari o‘rganilib, davlatlarning global savdo tizimidagi o‘rni va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan choralari tahlil etiladi. Ushbu maqola rivojlangan davlatlarning tashqi savdoni tartibga solish strategiyalarini va ularning iqtisodiyotga ta‘sirini chuqur o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Tashqi savdoning davlat tomonidan tartibga solinishi, Tashqi savdo, Import, Eksport, Global savdo tizimi, Jahon Savdo Tashkiloti (JST), AQSH, Milliy Xavfsizlik Kengashi, Kongress, Yaponiya, METI, JAPAN External Trade Organization (JETRO), Yevropa Ittifoqi (YI), Umumiy Savdo Siyosati (Common Commercial Policy, CCP), CETA (Comprehensive Economic and Trade Agreement).

Abstract. This article analyzes the issue of state regulation of foreign trade in developed countries. The article examines the main political, economic and legal means of managing and regulating foreign trade. Developed nations implement various methods such as promoting exports, restricting imports, applying customs policies, and entering trade agreements in order to ensure their economic security, protecting local industries, and maintaining socio-economic stability. The article

also covers examples of methods for managing foreign trade flows through customs tariffs, quotas, subsidies and other trade restrictions. In particular, the foreign trade policies of the United States, Japan and the European Union are studied and analyzed measures aimed at increasing the role and competitiveness of states in the global trade system. This article focuses on an in-depth study of strategies for regulating foreign trade of developed countries and their impact on the economy.

Keywords: *State regulation of foreign trade, Foreign trade, Import, Export, Global trade system, World Trade Organization (WTO), USA, National Security Council, Congress, Japan, METI, JAPAN External Trade Organization (JETRO), European Union (EU), General Trade Policy (Common Commercial Policy, CCP), CETA (Comprehensive Economic and Trade Agreement).*

Tashqi savdo — bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan savdosi. Mamlakatdan tovarlar chiqarish (eksport) va mamlakatga tovarlar kiritish (import) dan tashkil topadi. Eksport va import yig‘indisi mamlakatning Tashqi savdo aylanmasini tashkil etadi. Mamlakatlar o‘rtasida savdo - sotiqni rivojlanishi ikki tomonlama foyda olish imkonini beradi. Tashqi savdo mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarning eng oddiy va eng qadimiy shaklidir[1]. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish deganda odatda boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solishga yo‘naltirilgan faoliyat tushuniladi. Tashqi savdoga davlat aralashuvi darajasiga ko‘ra savdo siyosatini proteksionistik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga ajratish mumkin. Tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish davlatning alohida olingan mamlakatlar va mamlakatlar guruhlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalardagi strategik maqsadlarni aniqlashni, shuningdek, belgilangan maqsadlarga erishishni va erishilgan natijalarni saqlab qolishni ta‘minlovchi usullar va vositalarni ishlab chiqishni ko‘zda tutadi. Tashqi iqtisodiy siyosat davlatning ichki iqtisodiy siyosati bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli ham uning tarkibi, bir tomondan, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi tabiati bilan, ikkinchi tomondan esa, o‘z milliy xo‘jaligi miqyosida davlat tomonidan yechilayotgan ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari bilan ifodalanadi. Tashqi savdoni boshqarish va tartibga solishning asosiy siyosiy, iqtisodiy va huquqiy vositalari davlatlarning global iqtisodiyotda o‘z o‘rnini mustahkamlash va milliy manfaatlarni himoya qilish uchun qo‘llaniladi. Ulardan biri siyosiy vositalar

hisoblanib, tashqi savdoni boshqarish va tartibga solish jarayonida davlatning tashqi siyosati, diplomatiyasi va xalqaro kelishuvlari orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama savdo kelishuvlari orqali, masalan, Yevropa Ittifoqi, NAFTA (hozirda USMCA), yoki Jahon Savdo Tashkiloti (JST) kabi tashkilotlar doirasida savdo qoidalari belgilab boriladi. Bu kelishuvlar orqali savdo to‘siqlari kamaytiriladi, preferensial savdo imtiyozlari taqdim etiladi va savdo qoidalari muvofiqlashtiriladi. Keyingi keng qo‘llaniladigan vosita iqtisodiy vositalar hisoblanib, ular iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish, sanoatni himoya qilish, va xalqaro bozorlarni boshqarish maqsadida qo‘llaniladi. Misol qilib oladigan bo‘lsak, import va eksportga qo‘yiladigan bojxona tariflari, asosan, importni cheklash yoki eksportni rag‘batlantirish uchun qo‘llaniladi. Yuqori bojlar importni qimmatlashtiradi, bu mahalliy ishlab chiqaruvchilarga raqobat ustunligini ta‘minlaydi. Tashqi savdoning huquqiy vositalari orqali davlatlar o‘zining savdo siyosatini qonuniy tarzda amalga oshiradi va xalqaro savdo bitimlariga rioya qilinishini ta‘minlaydi. Mahsulotlarni import va eksport qilishda asosiy huquqiy asos bojxona kodeksi va qonunlari hamda tartiblari hisoblanadi. Bojxona qonunlari va tartiblari tovarlarning mamlakatga kirishini va chiqishini tartibga solish uchun joriy qilinadi. Ushbu qonunlar bojxona nazorati, ruxsatnomalar, tovarlarning sertifikatsiyasi, sanitariya va fitosanitariya talablarini o‘z ichiga oladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon Savdo Tashkiloti (JST) kabi xalqaro tashkilotlar tashqi savdoni boshqarishda o‘z qonuniy asoslariga ega. Ushbu tashkilotlar davlatlar o‘rtasida savdo bitimlari va shartnomalarni ishlab chiqadi va amalga oshirishga yordam beradi. Misol uchun, JST mamlakatlarga savdo siyosatini muvofiqlashtirish va global savdo erkinligini ta‘minlashda yordam beradi.

Qo‘shma Shtatlar dunyodagi ikkinchi yirik savdo davlatidir[2]. Butun sayyora bo‘ylab muomalada katta miqdorda AQSh dollari mavjud; xalqaro savdoda foydalaniladigan mablag‘larning qariyb 60% qismi AQSh dollarini tashkil etadi. Dollar xalqaro bozorlarda oltin va neft kabi tovarlar uchun standart valyuta birligi sifatida ham qo‘llanadi[3].

AQShning tashqi savdo siyosatini boshqarish ko‘p tarmoqli institutlar, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi vakolatlarning muvofiqlashtirilishi va lobizm kabi omillar orqali amalga oshiriladi.

Savdo bitimlari, tariflar siyosati va sanksiyalarni joriy etish vakolati prezidentga tegishli. Milliy Xavfsizlik Kengashi tashqi savdoni xavfsizlik strategiyasi bilan bog'lab, masalan, Xitoyga texnologik eksport cheklovlarini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi[4]. AQSh tashqi siyosati jarayonida Kongressning roli ham juda katta. AQSh Konstitutsiyasiga ko'ra, Prezident va Kongress davlat hokimiyatining teng huquqli tarmoqlari hisoblanadi. Kongressning tashqi siyosatga ta'siri uning "moliyaviy vakolati" orqali amalga oshiriladi, ya'ni Kongress ijro etuvchi hokimiyat tomonidan sarflanadigan mablag'larni tasdiqlaydi[5]. Shu orqali Kongress prezidentning tashqi siyosat qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, Kongress xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish yoki bekor qilish vakolatiga ega, bu esa AQSh tashqi siyosatining muhim jihatlaridan biridir[6]. Endi lobbizmga to'xtaligan bo'lsak, bunda AIPAC kabi guruhlar Kongressga ta'sir o'tkazib, savdo siyosatida manfaatdor mamlakatlar (masalan, Isroil) huquqlarini himoya qiladi. Harbiy sohadagi iqtisodiy o'rniga keladigan bo'lsak, Pentagon global ta'minot zanjirlarini xavfsizlashtirish (masalan, Janubi-Xitoy dengizi yo'llarini nazorat qilish) orqali savdo yo'nalishlarini belgilaydi. AQSh tashqi savdo siyosati strategik raqobatbardoshlikni qo'llab-quvvatlovchi qat'iy boshqaruv, ko'p qirrali institutsional muvofiqlikva global iqtisodiy tendensiyalarga tezkor moslashuv orqali amalga oshiriladi. Xususan, Xitoy bilan texnologik ustunlik uchun kurash va ta'minot zanjirlarini qayta qurish eng dolzarb yo'nalishlardan hisoblanadi.

Yaponiya tashqi savdosining davlat tomonidan boshqarilishi o'ziga xos va murakkab tizimga asoslanadi. Bu tizim davlatning iqtisodiy siyosati, kompaniyalar bilan hamkorligi va global bozorga nisbatan ehtiyotkor yondashuvni o'z ichiga oladi. Yaponiyada tashqi savdo va iqtisodiy siyosat o'rtasida mustahkam bog'lanish mavjud. Davlat o'zining iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqishda global savdo sharoitlarini, xalqaro munosabatlarni va raqobatbardoshlikni hisobga oladi. Shu bilan birga, davlat ichki ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, texnologik rivojlanish va eksportga yo'naltirilgan sanoatni rivojlantirish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqadi. Yana shuni aytish mumkinki, bu rivojlangan davlat tashqi savdoni boshqarishda turli hukumat tashkilotlaridan foydalanadi. Ulardan biri Tashqi savdo va iqtisodiy aloqalar vazirligi (METI) hisoblanib, u Yaponiyaning iqtisodiy siyosatini boshqaradi, eksportni va importni tartibga soladi, shuningdek, global savdo shartnomalarini tuzishda vakillik qiladi[7]. JAPAN External Trade Organization (JETRO) bu

tashkilot yapon korxonalariga chet el bozorlariga kirishda yordam beradi va o'zaro savdo hamkorliklarini rivojlantiradi. Yaponiya eksport-import banki (JEXIM) Yaponiyadagi eksportchi kompaniyalar uchun moliyaviy yordam ko'rsatadi va xalqaro savdo sharoitlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Yaponiya tashqi savdosini rivojlantirishda savdo shartnomalariga katta e'tibor qaratadi. Yaponiyaning xalqaro savdo siyosati ko'plab mintaqaviy va global bitimlarga asoslanadi. Shu jumlasidan Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo sifatida global savdoga oid muammolarni hal qilishda qatnashadi. Yaponiya, masalan, Trans-Tinch okeani sheriklik (TPP) kabi regional savdo bitimlarida ishtirok etadi, bu esa unga bozorlarni kengaytirish va o'z mahsulotlarini osonroq eksport qilish imkonini beradi.

Yaponiya uchun tashqi savdo barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Davlatning tashqi savdoga yondashuvi sifatini saqlashga, yuqori texnologiyalarni ishlab chiqarishga va ekologik mas'uliyatga katta e'tibor qaratadi. Bu orqali Yaponiya global bozorlar uchun ishonchli va yuqori sifatli mahsulotlarni taklif etadi.

Yevropa Ittifoqining (YI) tashqi savdosining davlat tomonidan boshqarilishi, uning iqtisodiy birligi, umumiy savdo siyosati va a'zolari o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga oladi. Yevropa Ittifoqi tashqi savdosi bir necha muhim omillar orqali boshqariladi, va bu jarayonni boshqarishda davlatlarning o'zaro kelishuvlari va Yevropa darajasidagi siyosatlar muhim rol o'ynaydi.

Yevropa Ittifoqining tashqi savdosi, Umumiy Savdo Siyosati (Common Commercial Policy, CCP) orqali boshqariladi. Bu siyosat Yevropa Komissiyasi va Yevropa Kengashining o'zaro kelishuvlari asosida ishlab chiqiladi va barcha YI a'zolari uchun yagona bo'ladi. CCP asosida Yevropa Ittifoqi bir qator faoliyatlarni amalga oshiradi. Yevropa Ittifoqi, erkin savdo bitimlari va xalqaro savdo shartnomalarini imzolashda a'zolarini vakillik qiladi. YI o'z nomidan savdo shartnomalarini tuzadi, shu jumladan, boshqa davlatlar yoki mintaqalar bilan savdo kelishuvlarini amalga oshiradi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi Kanada bilan CETA (Comprehensive Economic and Trade Agreement) kabi erkin savdo bitimini imzolagan. Yevropa Ittifoqi barcha a'zolari uchun yagona bojxona tariflarini belgilaydi, shuningdek, chet eldan import qilinadigan mahsulotlar uchun umumiy tariflar va chegirmalar o'rnatadi. YI, nafaqat import va eksport tariflarini, balki eksport qilinadigan mahsulotlar uchun standartlar, xavfsizlik, salomatlik va atrof-muhitni himoya qilish kabi me'yorlarni ham belgilaydi.

Yevropa Ittifoqi mintaqaviy va global darajada erkin savdo bitimlari tuzishni maqsad qiladi. Shu maqsadda YI Trans-Tinch okeani sherikligi (TPP) kabi bitimlarda ishtirok etgan, shuningdek, Afrikadagi, Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan savdo kelishuvlarini tuzgan. Bojxona ittifoqlari va qo'shimcha chegirmalariga keladigan bo'lsak, YI, misol uchun, o'zining GSP (Generalized System of Preferences) dasturi orqali rivojlanayotgan mamlakatlarga bojxona tariflarini kamaytiradi yoki olib tashlaydi. Bu dastur orqali YI eksportchilari, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlardan kirib keladigan mahsulotlarga chegirmalar taqdim etadi. Yevropa Ittifoqi ekologik xavfsizlikka katta e'tibor qaratadi. YI ekologik normativlar va yashil energiya bo'yicha savdo me'yorlarini ishlab chiqishda faoliyat yuritadi. Bu, Xitoy yoki AQSh kabi yirik savdo sheriklari bilan savdo bitimlarida ekologik talablarni qo'llashni o'z ichiga oladi.

Yevropa Ittifoqining jahon iqtisodiyotidagi o'rnini alohida e'tirofga loyiq. Jahonda ishlab chiqariladigan umumiy ichki mahsulotning 28 foizi, ya'ni 15 trln. AQSH dollari Ittifoq hisobiga to'g'ri keladi. Bu jahon iqtisodiyotining oltidan bir ulushi demakdir. Dunyodagi eng katta daromadga ega deb e'tirof etilgan 500 ta yirik kompaniyaning 161 tasi Yevropa Ittifoqida joylashgan. Yevropa Ittifoqining jahon savdo aylanmasidagi eksport-import ulushi esa 20 foiz, ya'ni 3,645,933 mln. yevroga tengdir. Shundan import ulushi – 1,714,224 mln. yevro, eksport ulushi esa 1,931,709 mln.yevrodir. Global tovar eksportida (jami 13 636.6 mln. yevro) Ittifoqining ulushi 15,6 foizni tashkil etsa (jami 2 131.7 mln. yevro), global tovar importida (jami 13 958.4 mln. yevro) esa uning ulushi 13.9 foizga tengdir (yoki 1 935.3 mln. yevro). Global xizmatlar eksport-importida Ittifoq o'rtacha 22 foiz ulush bilan dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Yevropa Ittifoqi tashqi savdo munosabatlarining o'ziga xosligi shundaki, uning tashqi savdo aylanmasi har yili taxminan 200 mlrd. yevro hajmidagi ijobiy saldo bilan yakunlanadi. Dunyoning 209 ta mamlakati bilan hamkorlik qiluvchi Ittifoq savdo aylanmasida xalqaro standartdagi 6-raqamli uyg'unlashtirilgan tizimda ro'yxatga olingan (Harmonized System (HS6)) 4,555 turdagi mahsulot oldi-sottisi amalga oshiriladi[8].

Yevropa Ittifoqi dunyodagi eng yirik eksportchi va 2008-yil holatiga ko'ra tovar va xizmatlarning eng yirik importchisi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichga erishishda a'zo davlatlar o'rtasidagi ichki savdoga tariflar va chegara nazorati kabi savdo to'siqlarini olib tashlash yordam beradi. Yevro hududidagi savdoning o'sishiga

ko‘pchilik a‘zolar o‘rtasida valyuta farqlari yo‘qligi yordam beradi. Yevropa Ittifoqi Jahon savdo tashkiloti doirasidan tashqarida savdo bilan bog‘liq kelishuv bo‘yicha muzokaralar olib borayotganda, keyingi kelishuv har bir YIga a‘zo davlat hukumati tomonidan tasdiqlanishi kerak[9].

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, tashqi savdo har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. U mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni kengaytiradi, ikki tomonlama manfaatlar asosida o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi va global bozorlar bilan integratsiyani ta‘minlaydi. Tashqi savdo jarayoni siyosiy, iqtisodiy va huquqiy vositalar orqali davlatlar tomonidan boshqariladi. Siyosiy vositalar orqali davlatlar savdo siyosatini tashqi siyosat va diplomatik aloqalar bilan uyg‘unlashtiradi, iqtisodiy vositalar esa sanoatni himoya qilish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Huquqiy vositalar yordamida savdo qonuniy tartibga solinadi va xalqaro bitimlarga rioya qilinadi. Yevropa Ittifoqi, AQSh va Yaponiya misolida ko‘rinadiki, har bir rivojlangan davlat tashqi savdoni boshqarishda o‘ziga xos mexanizmlardan foydalanadi. Yevropa Ittifoqi yagona savdo siyosati va bojxona ittifoqi orqali barcha a‘zolari nomidan yagona savdo siyosatini olib boradi. AQShda esa tashqi savdo siyosati prezident, Kongress va turli institutlar orqali amalga oshiriladi, lobbizm va milliy xavfsizlik strategiyasi muhim rol o‘ynaydi. Yaponiya tashqi savdoni davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik asosida, eksportga yo‘naltirilgan strategiyalar orqali boshqaradi. Yevropa Ittifoqining tashqi savdo siyosati iqtisodiy samaradorlik bilan birga ekologik barqarorlik, inson huquqlari va ijtimoiy qadriyatlarga asoslanadi. U dunyoning yetakchi savdo bloklaridan biri bo‘lib, ko‘plab davlatlar bilan erkin savdo bitimlari tuzgan, global savdo aylanmasida salmoqli ulushga ega va har yili barqaror ijobiy savdo saldosiga erishmoqda. Yevro hududidagi yagona valyuta va bojxona hududi bu jarayonlarni yanada samarali qiladi. Shunday qilib, tashqi savdo siyosati har bir davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u orqali mamlakatlar o‘z iqtisodiy manfaatlarini himoya qiladi, raqobatbardosh mahsulotlarini jahon bozorlariga olib chiqadi va global iqtisodiyotdagi o‘z o‘rnini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tashqi_savdo
2. “China overtakes US as world's largest goods trader” Financial Times
3. “Free exchange: Petrodollar profusion”. The Economist.
4. https://iaais.uz/uz/outputnew/mechanism-of-foreign-policy-decision-making-in-the-united-states-of-america#_ftn2
5. Байден Дж., Смит Гордон Х. Точка зрения. Конгресс и внешняя политика // США – Канада. Экономика, политика, культура. № 9. Ноябрь, 2000. С. 82–89.
6. https://iaais.uz/uz/outputnew/mechanism-of-foreign-policy-decision-making-in-the-united-states-of-america#_ftn2
7. <https://www.kun.uz/news/2019/11/16/yaponiyani-organamiz-mamlakat-rivojida-siyosatchilar-va-davlat-xizmatchilarining-tutgan-orni>
8. <https://old.uwed.uz/ru/news/fulltext/1646>
9. Se-jeong, Kim. “EU-Korea FTA Will Be a Long Process: Greek Ambassador The Korea Times (19.07.2009).